

- qayta sug'urta tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi – sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uchun qayta sug'urta tizimi muhim ahamiyatga ega. Biroq mamlakatda ushbu tizim hali to'liq rivojlanmagan;

- raqamlashtirish darajasining pastligi – ko'plab sug'urta kompaniyalarida raqamli xizmatlar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish samaradorligini pasaytiradi;

- kapital yetishmasligi muammosi – ba'zi sug'urta kompaniyalarida kapital yetarliligi darajasi past bo'lib, bu ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin<sup>66</sup>.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali - [https://gov.uz/en/pages/2030\\_strategy](https://gov.uz/en/pages/2030_strategy)
2. Yashil iqtisodiy taraqqiyot - <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/>
3. UzDaily.uz - <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-insurance-market-grows-by-188-in-q1-2025/>
4. H.Umarov, A.Buriyev. O'zbekiston sug'urta bozorining tahliliy sharhi. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Ilmiy elektron jurnal. UO'K: 368.912.
5. Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi - <https://t.me/asdruzbekistan>
6. Uzbekistan's insurance market grows by 18,8 % in Q1 2025 – UzDaily.uz
7. Uzbekistan's Insurance Market: Growth, Innovation, and Privatization - <https://kiaifund.com/>
8. J. Abdurazaqov. O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirish. Yashil iqtisodiy taraqqiyot ilmiy elektron jurnali - <https://doi.org/10.5281/zenodo.17369606>

### **“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA MOLIYA BOZORINING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNI ESG TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**Jo'rayeva Xolisxon Maxmud qizi**

*TDIU, Kechki ta'lim va magistratura fakulteti magistranti*

**Annotatsiya.** *Globalashuv sharoitida xalqaro moliya bozorining rivojlanish tendensiyalari mamlakatimiz moliya bozorining ichki infratuzilmalarini tahlil etgan holda rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqishni talab qiladi. Mazkur tezisdan O'zbekiston moliya bozorining hozirgi rivojlanish darajasi, uning iqtisodiy tizimdagi o'rnini hamda moliya bozorini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini moliya bozoriga joriy etish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *moliya bozori, ESG, kapital bozori, barqaror moliya, investitsiya muhiti, yashil iqtisodiyot.*

Global iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish bosqichida moliya bozori iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Moliya bozori orqali iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida moliyaviy resurslar samarali taqsimlanadi hamda

<sup>66</sup> J. Abdurazaqov. O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy elektron jurnali <https://doi.org/10.5281/zenodo.17369606>

investitsiya jarayonlari jadallashadi. Shu sababli har qanday davlat iqtisodiy rivojlanish strategiyasida moliya bozorini rivojlantirish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.<sup>67</sup>

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish, moliya sektorini modernizatsiya qilish hamda xalqaro moliya tizimiga integratsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.<sup>68</sup> Ayniqsa, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur strategiya doirasida moliya sektorida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, kapital bozorini rivojlantirish, moliyaviy instrumentlar turlarini kengaytirish hamda xalqaro standartlarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bugungi kunda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga erishishda jahon tajribasi "ESG" konsepsiyasini yo'lga qo'yish zarurligini isbotlab berdi va xususan, moliya bozorida muammolarni hal etishda ham shu konsepsiyani amaliyotga joriy etish yaxshi yechim ekanligi ma'qullandi. ESG tamoyillari kompaniyalar faoliyatini ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat hamda korporativ boshqaruv nuqtai nazaridan baholashga asoslangan bo'lib, investorlar tomonidan tobora keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston moliya bozori segmentida ham ayni shu ESG konsepsiyasini qo'llash nafaqat moliyaviy instrumentlar jozibadorligini oshiradi, balki mamlakatimiz iqtisodiyotining ekologik, ijtimoiy hamda boshqaruv jihatlarini takomillashtirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda moliya bozori bank sektori, kapital bozori, sug'urta bozori hamda boshqa moliyaviy institutlardan tashkil topgan bo'lib, bank sektori moliya tizimining eng yirik segmenti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 1-dekabr holatidagi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat tijorat banklari tizimi jami 892,939 trillion miqdorida aktivlarga ega bo'lgan<sup>69</sup>. Bu ko'rsatkich O'zbekiston bank tizimi nafaqat hajman kengaygani, balki iqtisodiy islohotlar va xususiylashtirish jarayonlari natijasida yanada barqaror va raqobatbardosh bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi. Biroq kapital bozori rivojlanish darajasi hali ham nisbatan past hisoblanadi. Mamlakat fond bozori kapitalizatsiyasi YaIMga nisbatan 5 foiz atrofida shakllangan.<sup>70</sup> Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlarda (AQSh, Yaponiya va Yevropa mamlakatlarida) bu ko'rsatkich 80–100 foizdan ortiqni tashkil etadi<sup>71</sup>.

Bu masalalarni hal etish masalasi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida muhim yo'nalish sifatida qaralgan bo'lib, unga ko'ra moliya bozorining rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

- kapital bozorining institutsional infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- moliyaviy instrumentlar turlarining cheklanganligi;
- institutsional investorlar ulushining pastligi;
- investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- aholining moliyaviy savodxonligi pastligi.

<sup>67</sup> World Bank. Global Financial Development Report. <https://www.worldbank.org>

<sup>68</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va iqtisodiy islohotlar dasturi. <https://www.gov.uz>

<sup>69</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari [cbu.uz](http://cbu.uz)

<sup>70</sup> Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari. <https://www.gov.uz>

<sup>71</sup> OECD. Capital Market Development Outlook. <https://www.oecd.org>

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash”ga qaratilgan chora-tadbirlar ro‘yxatining dastlabki maqsadlaridayoq “Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 5-7 foiz atrofida o‘shishini ta‘minlash”ga e‘tibor qaratilib, uni xalqaro moliyaviy institutlar, xususiy sektor, Davlat budjeti, ijrochilar, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi ko‘zlangan. Bu investitsion jozibadorlikni dastlab umumiy iqtisodiy sohada, keyinchalik moliya bozorining tarmoqlarida oshirishni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari strategiyadagi 100 ta maqsaddan birini butunlay mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirishga bag‘ishlanganligi (49-maqsad) moliya bozorini takomillashtirishning pirovard darajada ekanligini ko‘rsatib beradi. Bunda ustuvor samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmi yillik o‘rtacha 5-7 foiz o‘shishini ta‘minlash, ya‘ni 2025-yilda jami yillik hajm 43,1 mlrd.dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2026-yilda 50,5 mlrd.dollarga yetkazish, kelgusi yillar kesimida 6, 7 foizga o‘shishini ta‘minlash ko‘zlangan. Shuningdek, strategiyada 12 ta davlat ishtirokidagi korxonalar aksiyalarini xalqaro va mahalliy fond bozorlarida birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda umumiy qiymati 150 milliard dollar bo‘lgan 400 dan ziyod strategik ahamiyatga ega bo‘lgan texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ham o‘rin olgan bo‘lib, ular biz yuqorida sanab o‘tgan muammolarni hal etishning asosiy yechimi sifatida baholangan.

O‘zbekiston moliya bozoridagi muammolarni hal etishda “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan vazifalar, shuningdek ESG tamoyillariga asoslangan takomillashtirish yo‘nalishlari (Environmental, Social, Governance - atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, boshqaruv) bo‘yicha aniq ma‘lumotlarni birgalikda tahlil etamiz: Avvalo, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida moliya bozorini takomillashtirish bo‘yicha asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

1) Bank tizimi va moliya sektorini isloh qilish;

Strategiya bank-moliya tizimini tubdan yangilashni, raqobatbardosh bozorni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bunda davlat banklari soni kamaytiriladi, faqat 3–4 ta bank davlat tasarrufida qoladi, qolganlar xususiylashtiriladi. Davlat ishtirokini kamaytirish banklar samaradorligini oshiradi. Har yili bir bank xususiylashtirilishi orqali bank sektorida bozor tamoyillari kuchaytiriladi. Qolayversa, kredit portfeli va jamg‘armalarni oshirish, xaridorlar uchun yanada qulay moliyaviy xizmatlar yaratish ham strategiyada belgilangan bo‘lib, bu orqali kredit hajmi va omonatlar miqdorini sezilarli darajada oshirish ko‘zda tutilgan. Natijada banklar samaradorligi va raqobatbardoshligi oshadi, moliyaviy xizmatlar assortimenti kengayadi va bozor mexanizmlari mustahkamlanadi.

2) Investitsiya va kapital bozorini rivojlantirish;

Strategiyada kapital bozorining hajmi va faoliyati bo‘yicha aniqlangan maqsadlar erkin savdoga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar bozorining hajmini oshirish hamda xalqaro investorlar va yirik institutsiyalar jalb etilishi orqali fond bozorini kengaytirishdan iborat. Bu ichki moliya bozorining likvidligini oshiradi. Natijada kapital bozori yuksak likvidlik va diversifikatsiyaga ega bo‘ladi, investitsion oqimlar ko‘payadi.

3) Xalqaro huquqiy me‘yorlarni joriy etish;

Davlat moliya boshqaruvi strategiyasi ichida buxgalteriya hisobi va ichki auditni xalqaro standartlarga moslashtirish (IPSAS) kabi chora-tadbirlar belgilangan. Natijada moliyaviy axborotning shaffofligi va xalqaro investitsiya talablariga muvofiqligi oshishi kutilmoqda.<sup>72</sup>

Strategik rejalarni barqaror moliyaga mutanosib holda tashkil etish biroz mas'uliyatli ish bo'lib, O'zbekistonda ESG tamoyillarini tashkil etishda shu jihatlar hisobga olingan. ESG tamoyillariga asoslangan moliya bozorini takomillashtirish natijasida O'zbekiston moliya bozorida ko'pincha uchraydigan tizimli muammolar: investor ishonchi pastligi, korporativ boshqaruv sifati pastligi, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari yetishmasligi kabi xavflarni ESG integratsiyasi orqali yengillashtirish ko'zda tutilgan.

1-tamoyil atrof-muhit (Environmental)ga dahldor bo'lib, bunda "Yashil moliya" tizimini joriy etish orqali banklar va korporatsiyalar uchun iqlimga yo'naltirilgan kreditlar va yashil obligatsiyalarni chiqarish rejasi kiritilgan. Bu kapital bozoriga yangi investor segmentlarini jalb qiladi va barqaror investitsiyalarni oshiradi.<sup>73</sup> Shuningdek, moliya institutlarida ekologik risklarni baholash mexanizmlari yo'lga qo'yiladi, natijada risklar kamaytirilib, bozor barqarorligini oshadi.

2-tamoyil ijtimoiy (Social) mexanizmlarga yo'naltirilgan bo'lib, moliyaviy xizmatlarga erkin kirish, jamiyat ehtiyojlarini qondiruvchi kreditlar va ijtimoiy loyihalar uchun moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash kabi ESG doirasida baholanadigan mezonlar joriy etilishi ko'zda tutilgan. Qolayversa, kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy inkluziya choralari investor sifatida bozor qatnashchilari sonini oshirishi nazarda tutilgan.

3-tamoyilda boshqaruv (Governance) jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, korporativ boshqaruvni yaxshilash, shaffof moliyaviy axborot, mustaqil auditorlik va xavflarni boshqarish mexanizmlari joriy etish vazifalari belgilangan. Davlat va tijorat banklarida ESG ko'rsatkichlarini majburiy hisobot qilish orqali nafaqat tizimni yaxshilash, balki investorlar ishonchini ham oshirish va chet el kapitalini jalb etish masalalari e'tiborga olingan.

O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida ESG tamoyillarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda barqaror moliya tizimini shakllantirish bo'yicha bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan:

- yashil obligatsiyalar chiqarish mexanizmlarini joriy etish;
- bank sektorida barqaror moliya instrumentlarini rivojlantirish;
- korporativ boshqaruv standartlarini takomillashtirish;
- ekologik loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik ham muhim rol o'ynamoqda. Jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ekologik va barqaror rivojlanish loyihalari moliyalashtirilmoqda.

ESG tamoyillarini joriy etish quyidagi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin:

- xalqaro investorlar uchun investitsiya jozibadorligini oshirish;
- moliya bozorining barqarorligini mustahkamlash;
- korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash;

<sup>72</sup> O'zbekiston Respublikasi hukumati portali my.gov.uz

<sup>73</sup> Lex.uz

- ekologik muammolarni kamaytirish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston moliya bozorini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida moliya sektorida amalga oshirilayotgan kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda moliya tizimining barqarorligini ta'minlash kabi islohotlar ko'zda tutilgan davr mobaynida amalga oshirilishi- tizimdagi mavjud muammolarni hal etadi. Shu bilan birga, moliya bozorining samarali rivojlanishini ta'minlash uchun ESG tamoyillarini joriy etish orqali bozor barqarorligini oshirishga erishish mumkin. Bu standartlarini qo'llash nafaqat investorlar ishonchini oshirishga, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishga, muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga, O'zbekistonning global darajadagi nufuzini yanada yaxshilashga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida O'zbekiston moliya tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, ESG moliya instrumentlarini keng joriy etish hamda kapital bozorini chuqurlashtirish mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobotlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari.
4. World Bank. Global Financial Development Report.
5. OECD. ESG and Sustainable Finance Report.
6. UNDP. Sustainable Finance Framework.
7. International Finance Corporation. ESG Integration in Financial Markets.

#### **Internet manbalari**

1. <https://www.gov.uz>
2. <https://www.cbu.uz>
3. <https://www.worldbank.org>
4. <https://www.oecd.org>
5. <https://www.ifc.org>
6. <https://www.un.org>
7. <https://www.esgnews.com>

## **YASHIL MOLIYALASHTIRISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

**Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi yashil moliyalashtirish tizimining nazariy asoslari hamda uning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'рни tahlil qilinadi. Yashil moliyalashtirish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan muhim moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Yashil moliyalashtirish tushunchasi, uning shakllanish bosqichlari va asosiy instrumentlari, jumladan, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar hamda barqaror investitsiyalar ko'rib chiqiladi.